

Barcha ma'lumotlar:

**Sankt-Peterburgdagi davlat mehnat inspeksiysi** (Государственная инспекция труда в Санкт-Петербурге): git78.rostrud.ru, (812) 747-37-85

**Mehnat inspeksiyasining (Роструд) ishonch sayti:** онлайнинспекция.рф/covid19

#### 4. Agar kerak bo'lsa, ijtimoiy yordam olish

Yashash uchun ruxsatnoma, vaqtincha yashash huquqiga ega bo'lgan chet el fuqarolari, oila a'zolari - Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, shuningdek katta oilalar va keksa odamlar shoshilinch ijtimoiy yordam olish uchun murojaat qilish huquqiga ega

Sankt-Peterburg Davlat Boshqaruv Qo'mitasi "Ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish markazi" (СПб ГКУ «Центр организации социального обслуживания») ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilib, ijtimoiy yordam olish imkoniyatlari va tartibi to'grisida ma'lumot olishingiz mumkin: (812) 576-0-576 (ish vaqtida)

#### 5. Konsullik idoralaridan yordam so'rang

Sizning Sankt-Peterburgdagi davlatlaringizning konsulliklari va elchixonalarida favqulodda shtablar mavjud, shu yerda siz kerakli yordam va davlat xizmatlarini, shu jumladan vataningizga zudlik bilan qaytish masalalarini olishingiz mumkin.

Barcha ma'lumot:

**O'zbekistonning Sankt-Peterburgdagi Bosh konsulligi** (Генеральное консульство Узбекистана в Санкт-Петербурге): uzbekistanspb.ru, 7(962) 707 54 64 (bosh konsul), 7(965) 07 4444 ("O'zbekiston havo yo'llar"), 7(963) 320 8358 (Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi)

#### Hurmatli do'star!

Agar siz chet el fuqarosi bo'lsangiz va shoshilinch, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lsangiz, qiyin vaziyatga tushib qolsangiz yoki maslahatga muhtoj bo'lsangiz, maslahat uchun **PSP-Fondining** (ПСП-фонд) xayriya fondi bilan bog'laning:

**7 (953) 141 31 09** - Ishonch telefoni;  
**migrussia.ru** - foydali aloqalar, qonunchilik to'g'risidagi ma'lumotlar, muhojirlarga maslahatlar.  
**vk.com/pspfond** - Vkontakte guruhi.

**Sankt-Peterburgda Millatlararo munosabatlar va migratsiya siyosatini amalga oshirish qo'mitasining** (Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге)  
ishonch telefoniga murojaat qiling: **(812) 576 28 67**  
**migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru**

**СПб ГКУ «СПб Дом Национальностей»**  
Санкт-Петербург, ул. Моховая, д. 15, лит. А  
Domnac@yandex.ru , spbdn.ru , vk.com/spbdomnac  
Instagram: spb\_domnac

Буклет разработан БФ «ПСП-фонд»  
Автор-составитель: Якимов А.Н



Комитет  
по межнациональным  
отношениям  
и реализации  
миграционной политики  
в Санкт-Петербурге



**Izolatsiya rejimi:  
nima qilish kerak va kim  
yordam beradi?**

**Migrantlar uchun kerakli  
ma'lumot**



**Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab "koronavirus" epidemiyasi ketmoqda (COVID-19):** bu virus shamollahsga o'xshash, nafas yo'llari va oshqozon bezini buzib, hatto o'limga olib keladigan xavfli infeksiyani keltiradi.

**Asosiy xavf ostidagi guruh-** yoshi katta shaxslar(65+), ammo kichik bolalar, yoshlar va o'rta yoshdagi shaxslar kasal azob chekishi mumkin. **Asosiy alomatlar:** baland badan istmasi, quruq yo'tal, nafas qisilishi, mushaklarning og'rig'i, ko'ngil aynishi va boshqaqlar. Shu alomatlar 14 kun mobaynida infektsiya boshlanganidan so'ng boshlanib, oddiy gripp yoki shamollahsga o'xshashi mumkin.

## O'zingizni koronavirusdan qanday himoya qilishingiz kerak?

- jamoat joylariga tashrif buyurmang, shoshilinch vaziyat bo'lmasa uydan chiqmang;
- iflos qo'llar bilan yuzingizga tegmang;
- kasallar bilan muloqotda bo'l mang;
- qo'llarni yaxshilab yuvung (kamida 30 soniya issiq suvda);
- siz teygan yokida boshqalar teygan buyumlarning yuzasini sovunlab yuvung va dezinfeksiyalang;
- boshqalarga teginmang, quchoqlashib so'rashmang va qo'l uzatmang.

Barcha ma'lumot: СТОПКОРОНАВИРУС.РФ

**Virusning tarqatmasligi uchun, Sankt-Peterburg shahrida izolatsiya rejimi kiritilgan.**

**Sankt-Peterburg shahrida izolatsiya haqida barcha ma'lumot:**

[www.gov.spb.ru/covid-19](http://www.gov.spb.ru/covid-19), shahar ishonch telefon: (812) 245 32 20

## Horijdan kelgan shaxslar nima qilishi kerak?

### 1. Sog'lig'ingizni kuzatib boring

Agarda o'zingizni yomon his etsangiz, darhol shifoxonaga murojaat qiling. Har qanday shoshilinch va tez yordam, yuqumli va inson hayoti uchun xavfli sharoitida bepul o'tkaziladi, hattoki tibbiyot polisingiz va boshqa kerakli hujjatlarining bo'lmasa.

**Tez yordam chaqirish raqamlari- 112 va 103. Agar tez yordam murojaatingizni qabul qilmasa yoki sizni davolashmoqchi bo'lmasa, shu telefonga murojaat qiling: (812) 571 45 04**

Barcha ma'lumot:

**RF Sog'liqni saqlash vazirligining (Минздрав России) ishonch telefon:** 8 800 200 0 200  
**Sankt-Peterburgda sog'liqni saqlash qo'mitasining telefon (Комитет по здравоохранению Санкт-Петербурга):** (812) 63-555-77 zdrav.spb.ru  
**Homilador ayollar uchun kunu tun ishlaydigan ishonch telefon:** 8 952 288 03 20  
**Horijdan kelgan shaxshlar uchun Sankt-Peterburg shahridagi tez tibbiy yordam va tibbiy markazlari:** migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/budte-zdorovy

### 2. Migratsiya hujjatlarini uzaytirish haqida tashvishlanmang

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 18.04.2020 yildagi 274-sonli farmoni bilan 2020 yil 15 martdan 15 iyungacha migratsiya hujjatlarining amal qilish muddati to'xtatildi.

- migratsiyani rasmiylashtirish, viza, ro'yxatdan o'tish, ish patenti, ishslash uchun ruxsatnoma, vaqtincha yashash uchun ruxsatnoma, yashash uchun ruxsatnoma, vaqtinchalik boshpana - agar ularning amal qilish muddati tugagan bo'lsa ham amalda qoladi.

- 15 martdan 15 iyungacha haydar chiqarish, yashashning mumkin emasligi, ishslash uchun patent, RVP va yashash huquqini bekor qilish to'g'risidagi qarorlar qabul qilinmaydi.

Barcha ma'lumot:

**Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati Migratsiya boshqarmasi (Управление по вопросам миграции Санкт-Петербурга и Ленинградской области):** 78.мвд.рф/ms , (812) 573-30-02

**Sankt-Peterburgda Millatlararo munosabatlar va migratsiya siyosatini amalga oshirish qo'mitasining (Комитет по международным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге) ishonch telefonlari:**

<http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru>,  
(812) 576-28-67

### 3. Mehnat huquqlaringizni himoya qiling

Epidemiya holatida, ish beruvchi sizni ishdan bo'shatish yoki ish haqingizni qisqartirishga haqli emas, ortiqcha ish berishga yoki ish haqi to'lanmasdan ishslashga majburlashi mumkin emas.

Shuningdek ish beruvchi sizni himoya materiallari (niqoblar, qo'lqoplar) bilan ta'minlashi, ish tartibidagi barcha o'zgarishlarni imzolashda siz bilan kelishib olishi shart; ish haqini o'z vaqtida va to'liq miqdorda to'lash, ish haqini ushlab qolish va kechikishlardan qochish.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 18.04.2020 yildagi 274-sonli farmoni 2020 yil 15 martdan 15 iyungacha bo'lgan davrda chet el fuqarolarini patent va ish uchun ruxsatisiz ishslashga imkon beradi.

Siz ish beruvchi tomonidan mehnat huquqlari va o'zini o'zi izolyatsiya qilish qoidalarining buzilishi to'g'risida Sankt-Peterburgdagi Davlat mehnat inspeksiyasiga (Государственная инспекция труда в Санкт-Петербурге) 24 soat ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilib xabar berishingiz mumkin: (812) 408-90-16

